



“TASDIQLAYMAN”
Urug'chilikni rivojlantirish
markazi direktori
Sh.Otajonov

01 / 2026-yil

Urug'chilikni rivojlantirish markazida kengaytirilgan tarzda
o'tkazilgan yig'ilishning
2 -son BAYONI

2026-yil 26-yanvar

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

Sh.Otajonov – Urug'chilikni rivojlantirish markazi direktori

Ishtirok etdilar:

Urug'chilikni rivojlantirish markazi direktori o'rinbosarlari, bo'lim boshliqlari, bosh mutaxassislar, texnik xodimlar, Hududiy boshqarmalar boshliqlari, “BEST SEEDS” MCHJ rahbarlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI:

“Urug'chilikni rivojlantirish markazi” DM tizimida korrupsiyaga oid holatlarni oldini olish va unga qarshi kurashish samaradorligini oshirish to'g'risida.

(Otajonov, Aminov, Mo'ydinov, Ergasheva, Bazarov, Egamberdiyev, Tulepov, Mansurov, Sattarov, Jabborov, Baltayev, Tolmasov, Gaybnazarova, Otajonov)

Yig'ilishni “Urug'chilikni rivojlantirish markazi” DM direktori Sh.Otajonov ochib, urug'chilik tizimida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, mansab vakolatlaridan noto'g'ri foydalanish holatlarini bartaraf etish, shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va oldini olish dolzarb vazifalardan ekanligini, aynan shu masalada bir hafta oldin Davlat Xavfsizlik Xizmati mas'ul xodimlari bilan urug'chilik tizimida sodir bo'layotgan korrupsiya holatlari, ularni bartaraf etish bo'yicha o'zaro muhokamalar bo'lib o'tganligi va tegishli ko'rsatmalar berilganligini ta'kidladi.

Shuningdek, yig'ilishni boshlashdan oldin Markaz direktori Sh.Otajonov Prezidentimizni ushbu iboralarini keltirib o'tdi:

“Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo’lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o’z oldimizga qo’ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o’tishimiz kerak”

Ta’kidlash joizki, Davlatimiz Rahbari tomonidan 2026-yil korrupsiyaga qarshi kurashishda *“favqulodda holat”* yili sifatida belgilanib, bu illatga qarshi keskin va qat’iy pozitsiya qabul qilingani alohida qayd etildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirish, davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, mansab vakolatlaridan suiiste’mol qilish holatlarini keskin kamaytirishga qaratilgan farmonlarida har bir rahbarning shaxsiy mas’uliyati belgilangani qayd etildi.

Yig’ilishda, direktor Shuhrat Otajonov Urug‘chilikni rivojlantirish markazi, hududiy boshqarmalar hamda tizim korxonalarini faoliyatida urug‘lik mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va sotish jarayonlarida korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarga birma bir to‘xtalib o‘tdi hamda ushbu jarayonlarda qonunchilik talablariga qat’iy rioya etish, inson omilini qisqartirish hamda raqamlashtirishni keng joriy etish zarurligini ta’kidladi.

Markazga belgilangan vazifa hamda topshiriqlar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishida boshqaruv apparati hamda tizim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha korxonalarining rahbar va xodimlari teng javobgar ekanligi, ishlarni tizimli tashkil etish zarurligi bo‘yicha mas’ullarga tegishli ko‘rsatmalar berildi.

“Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” DM tizimida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan har bir xodim korrupsiyaga oid holatlarga yo‘l qo‘yadigan bo‘lsa javobgarlik qat’iy bo‘lishi haqida ogohlantirildi.

Kun tartibida muhokama qilingan masalalar, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati samaradorligini oshirish hamda bajarilishi zarur bo‘lgan ustuvor vazifalarni sifatli amalga oshirilishi yuzasidan yig‘ilish

QAROR QILADI:

1. Urug‘chilikni rivojlantirish markazi va uning tizimidagi tashkilotlar rahbar va xodimlari uchun funksional vazifalari hamda belgilangan vazifalar doirasida ishlarni tizimli tashkil etish, ijro intizomiga hamda ichki mehnat tartib-qoidalarga qat’iy rioya qilish, Prezident Farmon va qarorlari ijrosi hamda Hukumat tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash lavozim majburiyati ekanligi belgilansin.

2. Direktor o‘rinbosarlari (Aminov, Muydinov), Hududiy boshqarmalar rahbarlari, Urug‘lik tayyorlash korxonalarini rahbarlari (Best seeds):

tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha profilaktik tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirilishini;

barcha tarkibiy bo'linmalarda korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash, baholash va kamaytirish bo'yicha ichki nazorat mexanizmlari kuchaytirilishini;

urug'chilik sohasida hujjatlar rasmiylashtirilishi, hisobotlar yuritilishi hamda mahsulot harakati jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilishini ta'minlasin.

3. Direktor o'rinbosarlari (Aminov, Muydinov), **Ichki audit va korrupsiyaga qarshi nazorat** (Xidirov), **Hududiy boshqarmalar va tizim korxonalarini rahbarlari** (Best seeds) tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha shaxsiy mas'uliyat belgilanib, har chorak yakuni bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida axborot taqdim etib borilishini ta'minlasin.

4. Direktor o'rinbosari (Aminov), **"E-urug'" - tizimi va boshqa raqamli platformalarni muvofiqlashtirish bo'limi** (Tolmasov) bir oy muddatda urug'lik mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va sotish jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash maqsadida hujjat aylanmasi va hisobot tizimlarini raqamlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqib, rahbariyatga kiritsin.

5. Direktor maslahatchisi (Ergasheva), **Yuridik bo'lim** (Baltayev), **Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi** (Gaybnazarova) xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi huquqiy madaniyatni oshirish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va halollik tamoyillarini mustahkamlash bo'yicha o'quv-seminarlar va tushuntirish ishlari olib borilishini tashkil etsin.

6. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (Bazarov), **Yuridik bo'lim** (Baltayev), **o'n besh kun muddatda** Markaziy apparat, hududiy boshqarmalar hamda urug'lik tayyorlovchi korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha ish rejalarini qayta ko'rib chiqib, hisobot yuritishda yuzaga kelayotgan muammolar hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni barataraf etish yuzasidan aniq asoslantirilgan dastur ishlab chiqib rahbariyatga kiritsin.

7. "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" DM markaziy apparatining barcha xodimlari, shuningdek, hududiy boshqarmalar va korxonalar rahbarlaridan ish faoliyatida korrupsiyaga oid harakatlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan kafolat xati olinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8. "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" DM tizimida korrupsiyaga oid holatlarni kelib chiqish riskini baholab borish yuzasidan 2026-yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. Mazkur bayonda belgilangan topshiriqlar ijrosini nazorat qilish direktor o'rinbosarlari Sh.Aminov hamda B.Mo'ydinov zimmasiga yuklansin.

Bayonlashtiruvchi



Sh.Mansurov

**“Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” DM tizimida korrupsiyaga oid holatlarni kelib chiqish riskini baholab borish yuzasidan
2026-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”**

T/r	Korrupsiya kelib chiqishi mumkin bo‘lgan holatlar (risklar)	Oldini olish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar	Mas‘ul ijrochilar
1.	<p>Urug‘lik sifatini baholashda manfaatlar to‘qnashuvi (Urug‘lik mahsulotlarining nav tozaligi, unuvchanligi va sertifikatlashtirish jarayonida mas‘ul xodimlar tomonidan ayrim xo‘jalik yoki tadbirkorlik subyektlariga noqonuniy imtiyozlar berish, sifat ko‘rsatkichlarini asossiz ravishda yuqori baholash holatlari)</p>	<p>Urug‘lik sifatini baholash va sertifikatlashtirish jarayonlarini raqamlashtirish, laboratoriya natijalarini yagona elektron platformada yuritish. Baholashda ishtirok etuvchi xodimlar uchun manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida majburiy deklaratsiya joriy etish. Urug‘lik sifatini aniqlashda mustaqil laboratoriyalar va tashqi audit mexanizmlarini qo‘llash.</p>	<p>Direktor o‘rinbosari Sh.Aminov, Urug‘liklarni qayta ishlash, tayyorlash va sotishni muvofiqlashtirish bo‘limi Sh.Mansurov, Hududiy boshqarma boshliqlari, “BEST SEEDS” rahbarlari</p>
2.	<p>Urug‘liklarni taqsimlash va sotishda shaffoflikning yetishmasligi (Davlat buyurtmasi yoki kvota asosida urug‘liklarni sotish va taqsimlash jarayonlarida ochiq mezonlar yo‘qligi natijasida urug‘lik resurslarini tanish-bilishchilik asosida ajratish, ayrim xaridorlarga sun‘iy ustunlik berish xavfi)</p>	<p>Urug‘liklarni taqsimlash va sotish jarayonlarini ochiq elektron reestr orqali amalga oshirish. Kvota va davlat buyurtmalari asosida urug‘lik ajratish uchun aniq va ochiq mezonlarni tasdiqlash hamda ommaviy e‘lon qilish. Urug‘lik sotish jarayonlarini jamoatchilik nazorati va ichki komplayens xizmati orqali kuzatib borish.</p>	<p>Direktor o‘rinbosari Sh.Aminov, Urug‘liklarni qayta ishlash, tayyorlash va sotishni muvofiqlashtirish bo‘limi Sh.Mansurov, Hududiy boshqarma boshliqlari, “BEST SEEDS” rahbarlari</p>
3.	<p>Shartnomalar tuzish va narxlarni belgilashda korrupsion kelishuvlar (Urug‘liklarni qayta ishlash, qadoqlash va realizatsiya qilish bo‘yicha shartnomalarni tuzishda bozor narxlaridan chetga chiqish, ayrim tashkilotlar bilan oldindan kelishilgan holda noqonuniy qarorlar qabul qilish ehtimoli korrupsiya risklarini yuzaga keltiradi.)</p>	<p>Barcha shartnomalarni tuzishda tanlov (konkurs) va elektron xarid tizimlaridan foydalanishni majburiy etish. Narxlarni belgilashda bozor tahlili va iqtisodiy asoslangan hisob-kitoblarni hujjatlashtirish. Shartnomalarni tuzish jarayonida kollegial qaror qabul qilish va ichki auditorlik tekshiruvlarini joriy etish.</p>	<p>Direktor o‘rinbosari Sh.Aminov, Urug‘liklarni qayta ishlash, tayyorlash va sotishni muvofiqlashtirish bo‘limi Sh.Mansurov, Hududiy boshqarma boshliqlari, “BEST SEEDS” rahbarlari</p>

T/r	Korrupsiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlar (risklar)	Oldini olish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar	Mas'ul ijrochilar
4.	<p>Hisobot va ma'lumotlarni soxtalashtirish ehtimoli (Urug'liklarni qayta ishlash hajmlari, zaxira qoldiqlari va sotuv ko'rsatkichlari bo'yicha hisobotlarda haqiqiy ma'lumotlarni buzib ko'rsatish, ortiqcha yoki kamaytirilgan raqamlar orqali shaxsiy manfaat ko'zlash holatlari yuzaga kelishi mumkin.)</p>	<p>Urug'liklarni qayta ishlash, zaxira, harakat va sotuv ko'rsatkichlari bo'yicha barcha hisobotlarni yagona elektron axborot tizimi orqali yuritish va avtomatik ravishda shakllantirish.</p> <p>Davriy ravishda ichki audit va taqqoslama tekshiruvlar (ombor qoldiqlari, shartnomalar va moliyaviy hujjatlar o'rtasida) o'tkazish.</p>	<p>Direktor o'rinbosari Sh.Aminov, Urug'liklarni qayta ishlash, tayyorlash va sotishni muvofiqlashtirish bo'limi Sh.Mansurov, Hududiy boshqarma boshliqlari, "BEST SEEDS" rahbarlari</p>
5.	<p>Urug'lik paxta va donlarni qabul qilish va tarqatish davomida qog'ozdari raqamlar bilan ombordagi tafovutlarni ochiq ko'rsatmaslik uchun korrupsion holatlar yuzaga kelishi mumkin (Urug'lik paxta va donlarni qabul qilish va tarqatish hamda qayta ishlaganda otxod mahsulotlari xajmlarning qog'ozda yozilgani va aslida amalga oshirilgan xajmlarda farq kelib chiqishi)</p>	<p>Urug'liklarni qayta ishlash davomida urug'liklardan chiqadigan otxod mahsulotlarini real xajmini qayta ishlangan mahsulotga bog'lagan holda hisob kitobini doimiy yuritib borish.</p>	<p>Direktor o'rinbosari Sh.Aminov, Urug'liklarni qayta ishlash, tayyorlash va sotishni muvofiqlashtirish bo'limi Sh.Mansurov, Hududiy boshqarma boshliqlari, "BEST SEEDS" rahbarlari</p>
6.	<p>Urug'lik paxta yetishtiruvchi subyektlar maydonlarida monitoring va aprobatsiya jarayonida urug'lik maydonlarni nav aralashmalaridan to'liq tozalamasdan, belgilangan navdorlikka keltirmasdan urug'likka o'tkazish holatlari.</p>	<p>Urug'lik maydonlarda begona nav aralashmala-ridan tozalash ishlaridan tashqari molekulyar-genetik baholash ishlarini tashkil qilish.</p>	<p>Direktor o'rinbosari B.Muydinov, Texnik ekinlar urug'chiligi bo'limi I.Egamberdiyev, Hududiy boshqarma boshliqlari</p>
7.	<p>Urug'lik chigit tayyorlash jarayonida xujjatda ko'rsatilmagan miqdorda urug'lik chigit tayyorlash va paxta yetishtiruvchi subyektlarga arzon narxlarda naqd pulga sotish holatlari mavjud.</p>	<p>Tayyorlangan urug'liklarni har bir partiya bo'yicha qayta ishlashdan tayyor mahsulot olgunga qadar aniq hisobini yuritish.</p>	<p>Direktor o'rinbosari B.Muydinov, Texnik ekinlar urug'chiligi bo'limi I.Egamberdiyev, Hududiy boshqarma boshliqlari</p>

T/r	Korrupsiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlar (risklar)	Oldini olish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar	Mas'ul ijrochilar
8.	<p>Urug'liklarni chet el mamlakatlariga eksport qilish vaqtida yuzaga keladigan narx bo'yicha korrupsion holatlar (Chiqariladigan urug'liklarini shartlarini sun'iy ravishda og'irlashtirish yoki yengillashtirish evaziga manfaat olish.)</p>	<p>Qarorlarda eksportga chiqariladigan urug'liklar uchun kerakli bo'lgan sertifikat va boshqa hujjatlarni aniq kursatilishi kerak. Qarorlarda keltirilmagan hujjatlarni talab qilmaslik uchun qarorda aniq hujjatlar talabini ko'rsatish. Shuningdek urug'liklarni Respublika bo'yicha aniq narxlar belgilash lozim.</p>	<p>Direktor o'rinbosari Sh.Aminov, Xalqaro aloqalar va investitsiyalarni jalb qilish bo'limi T.To'rayev</p>
9.	<p>Markazga tegishli tanlovlar jarayonida loyiha tanlash vaqtida yuzaga keladigan korrupsion holatlar (Tanish-bilishchilik (nepotizm): Loyiha tanlashda qarindoshlar yoki yaqin tanishlarga tegishli kompaniyalarga ustunlik berish)</p>	<p>Baholashda ishtirok etuvchi xodimlar uchun manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida majburiy deklaratsiya joriy etish. Shaffof tizim yaratish kerak online rejimda barcha ko'rib turishi lozim., jamoatchilik nazorati va ichki komplayens xizmati orqali kuzatib borish.</p>	<p>Direktor o'rinbosari Sh.Aminov, Xalqaro aloqalar va investitsiyalarni jalb qilish bo'limi T.To'rayev</p>
10.	<p>Hujjatlar va murojaatlar bilan ishlash, ijro intizomi jarayonida berilgan topshiriqlarning muddatini suniy ravishda manfaatni ko'zlab o'zgartirish, cho'zish uchun moddiy buyumlar taklif etilishi mumkin</p>	<p>Hujjatlar va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassisda halollik, shaffoflik, tartib, intizom malakalarini shakllantirish. Me'yoriy hujjatlar bo'yicha bilimlarini rivojlantirib borish. O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasiga ega bo'lish.</p>	<p>Direktor o'rinbosari Sh.Aminov, Hujjatlar va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis F.Tolipova, Hududiy boshqarma boshliqlari</p>
11.	<p>Yuridik ta'minlash xizmatlari tomonidan taqdim etilishi lozim bo'lgan xujjatlarni manfaatni ko'zlab o'zgartirish, cho'zish holatlari natijasida talabnoma-da'vo tartibida ish olib borishni kechiktirish xavfi</p>	<p>Markaz strukturasiidagi funeksional bo'limlar va Xududiy boshqarmalar tomonidan belgilangan tartib asosida va muddatlarda xisobotlarni topshirish va ularni o'z vaqtida topshirilishini nazorat qilish. Mutaxassislarda halollik, shaffoflik, tartib, intizom malakalarini shakllantirish.</p>	<p>Direktor o'rinbosari Sh.Aminov, Yuridik ta'minlash bo'limi M.Baltayev, Hududiy boshqarmalar yuristlari</p>
12.	<p>Tizim tashkilotlari tomonidan debitor qarzdorliklarni undirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni shaxsiy manfaatni ko'zlab bajarmaslik yoki muddatini kechiktirish</p>	<p>Tizim tashkilotlari yuridik xizmat xodimlari bilan seminar yig'ilishlari o'tkazish, korrupsiyaga oid tushuntirishlar berilishini ta'minlash.</p>	<p>Direktor o'rinbosari Sh.Aminov, Yuridik ta'minlash bo'limi M.Baltayev, Hududiy boshqarmalar yuristlari</p>

T/r	Korrupsiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlar (risklar)	Oldini olish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar	Mas'ul ijrochilar
13.	Tizim tashkilotlarining mas'ul, moddiy javobgar shaxslari o'z lavozim majburiyatlarini lozim darajada anglamasligi, xujjatlarni to'g'ri shakllantirilishi va ijrosi bo'yicha mas'uliyatni to'la his qilmasligi	Tizim tashkilotlarining rahbar, mas'ul, moddiy javobgar shaxslarining bu boradagi mas'uliyatini oshirish, nazoratni kuchaytirish	Direktor o'rinbosari B.Muydinov , Komplayens nazorat, Ichki Audit bo'yicha mutaxassis I.Xidirov
14.	Tizim tashkilotlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qabul qilish, qayta ishlash va sotishda belgilangan tartib, mayoriy xujjatlarga amal qilmaslik (hisobotlarda to'liq aks ettirmaslik, daromadlarni yashirish, tayyor mahsulotni naqd pulda sotish)	Buxgalteriya, moddiy javobgar shaxslar hisobotlarini tuzishni to'liq elektron shaklga o'tkazish	Direktor o'rinbosari B.Muydinov , Komplayens nazorat, Ichki Audit bo'yicha mutaxassis I.Xidirov
15.	Bo'sh ish o'rinlariga yangi xodimlarni tavsiya qilishda tanish-bilish va pora taklif qilish holatlari bo'lishi mumkin	Bo'sh ish o'rinlariga nomzodlarni ko'rib chiqish va qabul qilish tegishli bo'linmalar mas'ullaridan iborat ishchi guruh xulosasiga asosan amalga oshirilishi lozim	Direktor o'rinbosari B.Muydinov , Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha bosh mutaxassis D.Gayibnazarova , Hududiy boshqarma boshliqlari
16.	Xodimlarni lavozimdan lavozimga o'tkazish (lavozim darajasini ko'tarish) va ishdan bo'shatishda o'z lavozim vakolatini suiiste'mol qilish holatlari bo'lishi mumkin	Xodimlarni lavozimdan lavozimga o'tkazish (lavozim darajasini ko'tarish) va ishdan bo'shatish direktor tashabbusiga yoki tegishli bo'linmalar mas'ullaridan iborat ishchi guruh xulosasiga asosan amalga oshirilishi lozim	Direktor o'rinbosari B.Muydinov , Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha bosh mutaxassis D.Gayibnazarova , Hududiy boshqarma boshliqlari
17.	Boshqoli don urug'ligi yetishtiruvchi subyektlar urug'lik maydonlarida dala monitoringgi va dala aprobatsiya ko'rigi jarayonlarida urug'lik maydonlarni xar hil nav aralashmalaridan to'liq tozalamasdan, dalani belgilangan navdor holatga keltirmasdan urug'likka o'tkazish holatlari mavjud.	Urug'lik maydonlarda begona nav aralashmalaridan to'liq tozalash ishlarini amalga oshirish. Ekilgan navning navdorligini to'liq saqlash ishlarini tashkil etish.	Direktor o'rinbosari B.Muydinov , G'alla, don, moyli va ozuqa ekinlar urug'chiligi bo'limi S.Tulepov , Hududiy boshqarma boshliqlari
18.	Boshqoli don urug'ligi tayyorlashda belgilangan urug'lik ekilmasdan, boshqa navlardan urug'lik g'alla tayyorlash	Jang'arilgan urug'liklarni aprobatsiya dalolatnomalari asosida va urug'lik sotib olingan xujjatlar asosida nazorat	Direktor o'rinbosari B.Muydinov , G'alla,

T/r	Korrupsiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlar (risklar)	Oldini olish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar	Mas'ul ijrochilar
	va yetishtirilgan yalpi hosilni kamaytirib ko'rsatish, boshqa subyektlarga arzon narxlarda naqd pulga sotish holatlari mavjud.	qilib, yetishtirilgan hosilning prognoz ko'rsatgichlari bilan aniq hisobini yuritish.	don,moyli va ozuqa ekinlar urug'chiligi bo'limi S.Tulepov , Hududiy boshqarma boshliqlari
19.	Moyli va ozuqa ekinlari urug'larini tayyorlashda ham urug'lik maydonlarida dala monitoringgi va dala aprobatsiya ko'rigi jarayonlarida urug'lik maydonlarni xar hil nav aralashmalaridan to'liq tozalamasdan, dalani belgilangan navdor holatga keltirmasdan urug'likka o'tkazish holatlari mavjud.	Urug'lik maydonlarni begona o't va begona nav aralashmalaridan to'liq tozalashni amalga oshirish. Ekilgan moyli va ozuqa ekinlarining navdorligini to'liq saqlab, urug'lik aprobatsiya natijalariga ko'ra, urug'lik jamg'arish ishlarini tashkil etish.	Direktor o'rinbosari B.Muydinov , G'alla, don,moyli va ozuqa ekinlar urug'chiligi bo'limi S.Tulepov , Hududiy boshqarma boshliqlari
20.	Urug'lik tayyorlash korxonalarini bilan fermer xo'jaliklari o'rtasida vaqtida undirilmagan debetor qarzdolliklarni undirmaslik uchun olinadigan moddiy buyumlar	Yuzaga kelgan debetor qarzdorlikni undirish maqsadida o'z vaqtida iqtisodiy sudlarga davo arizalarini kiritish.	Direktor o'rinbosari Sh.Aminov , Moliya reja iqtisod bo'limi Q.Soatov , Hududiy boshqarma boshliqlari
21.	Best seedslarda urug'lik don hamda urug'lik chigitni qabul qilish, ishlab chiqarish va uni sotish jarayonlarida kamaytirib ko'rsatish uchun taklif qilishi mumkin bo'lgan moddiy boyliklar	Ushbu uch bosqichli jarayonda to'liq onlain nazorat markaz tomonidan bo'lishi kerak.Ishlab chiqarish sexlarida hamda tarozixonani ish davrida onlain kuzatuv kameralari orqali markaz tomonidan kuzatib borish.	Direktor o'rinbosari Sh.Aminov , Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi B.Bozorov , "BEST SSEDS" hisobchilari
22.	Best seedslarda moliyaviy xisob-kitoblarni kontragent foydasiga ishlashi uchun hal qilib berish evaziga moddiy boyliklar va sovg'alar	Best seedslarda barcha moliyaviy hisob-kitoblar markazning onlain kuzatuv va ruxsati bilan ish yuritilishi kerak.	Direktor o'rinbosari Sh.Aminov , Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi B.Bozorov , "BEST SSEDS" hisobchilari